O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIGI SHAROITIDA TA’LIM TIZIMI VA XORIJIY TILLARGA E’TIBORNING KUCHAYISHI

Maxmudov Sulton Obit o‘g‘li
Buxoro davlat tibbiyot instituti tibbiy kimyo kafedrasi assistenti
E-mail: maxmudov.sulton@bsmi.uz

Anotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining mustaqillig yillaridan keying davrlarda ta’lim tizimini rivojlanishi va ravnaq topishi xususan xorijiy tillarga va pedagoglarni kasbiy maxoratini oshirishga qatarilgan e’tibor va ishlar haqida so‘z boradi. Xususan O‘zbekiston Respublikasi ikkinchi prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning pedagoglarni rag‘batlantirish ularning kasbiy maxoratini yanada oshirish ularga berilgan sharoitlar va yoshlarni chet davlatlarga yuborish hamda ularga davlat tomonidan ajratilgan rag‘batlantirishlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Sh.M.Mirziyoyev, xorijiy til, adabiyotshunoslik, PQ-2909, PISA, renessans, Rahimov School.

Аннотация. В данной статье рассматривается развитие и прогресс системы образования в Республике Узбекистан в период после обретения независимости, в частности уделяемое внимание иностранным языкам и повышению профессионального мастерства педагогов. Освещаются меры по поддержке и стимулированию преподавателей, предпринятые вторым Президентом Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёевым, улучшение условий для их деятельности, а также отправка молодежи на обучение за рубеж и государственные программы по их поощрению.

Ключевые слова: Ш. М. Мирзиёев, иностранный язык, литературоведение, ПК-2909, PISA, Ренессанс, Rahimov School.

Annotation. This article examines the development and progress of the education system in the Republic of Uzbekistan during the years following independence, with particular attention to foreign languages and the enhancement of teachers’ professional skills. It highlights the measures taken by the second President of the Republic of Uzbekistan, Sh. M. Mirziyoyev, to support and motivate educators, improve their working conditions, send young people to study abroad, and provide them with various forms of state-sponsored encouragement.

Keywords: Sh. M. Mirziyoyev, foreign language, literary studies, PQ-2909, PISA, Renaissance, Rahimov School.

Kirish

Bugungi kunda xalqimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining hamma jabhalarida erishilayotgan yutuqlar, jahonning eng rivojlangan davlatlari bilan siyosiy, iqtisodiy, manaviy-marifiy, ilmiy-texnik sohalardagi aloqalarda erishilayotgan muvaffaqiyatlar bevosita yurtimizning o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganligi bilan bog‘liqdir.

ISSN 3030-3907

Shu jumladan, O‘zbekiston chet davlatlar bilan xalqaro aloqalar qilmasdan turib o‘z kelajagini belgilab bera olmasligini tushungan holda, o‘z e'tiborini chet tilllari, o‘zga xalqlar madaniyati, san'ati, davlat tuzilishi va joylashuviga qaratdi. Shuning natijasi o‘laroq, O‘zbekistonda adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida ham juda ko‘p ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Darhaqiqat, ma'naviyatimizning asosi bo‘lgan adabiy tilimizni yanada rivojlantirish, xalqimizning asrlar davomida shakllangan milliy-ma'naviy qadriyatlarini tiklash, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy merosni o‘rganish, mustaqillik mafkurasini badiiy ijod sohasida, ta'lim jarayonida yoshlarimiz ongiga singdirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Tarbiya, odob-axloq sohasida amaliy namuna hal qiluvchi ahamiyatga ega boladi. Farzandlarimizga, avvalo, o‘zimiz hamma sohada — vatanga, xalqqa sadoqatli bo‘lishda, ilmga, kasb-u hunarga mehr qo‘yishda, ota-ona, jamiyat oldidagi burchimizni sidqi dildan ado etishda amaliy namuna ko‘rsatishimiz kerak"[10]

Hozirgi globallashuv davrida xorijiy tillarni organishga bolgan talab kundan-kunga ortib bormoqda. Shuning natijasi olaroq, Ozbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirzyoyevning Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ 2909-sonli qarori bu borada muhim ahamiyat kasb etib, unda belgilangan chora tadbirlar zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga qaratilgan[11]. Biz o‘zaro ishonch va manfaatlarni hisobga olish asosida xorijiy davlatlar, eng avvalo, qo‘shni davlatlar, shu bilan birga, xalqaro institutlar bilan yaqindan hamkorlik qilishni bugungi kun talablari darajasida tashkil etamiz. Xorijiy til materiallarini ona tiliga, ona tili materiallarini esa xorijiy tilga tarjima qilish jarayonida tafakkur qobiliyati o‘sadi, bir vaqtning o‘zida aql, tafakkur, hayol, xotira va so‘z, bilish qobiliyati rivojlantiriladi, chunki aytilgan fikrni chuqur tushunishgina emas, balki o‘sha fikrni o‘z ona tilida mukammal va to‘g‘ri ifodalay bilih ko‘nikmalari ham talab etiladi. Bunga esa faqat ikkala o‘zbek va xorijiy til materiallarini chuqur tahlil qilish orqaligina erishish mumkin. Ingliz tili ming yillik tarixga ega. Bu vaqt ichida unda insonlar tomonidan chiroyli deb etirof etilgan katta miqdordagi iboralar yigilib kelinmoqda.

[10] Mirziyoyev Sh. M. Ozbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda organish va targib qilishning dolzarb masalalari / / Xalq sozi — Toshkent, 2018-yil 7-avgust. https://xs.uz/uz/post/shavkat-mirziyoyev-ozbekmumtoz-va-zamonavij-adabiyotini-khalqaro-miqyosda-organish-va-targibqilishning-dolzarb-masalalari-mavzusidagi-khalqaro-konferentsiyaishrtirokchilariga-tabrik-jolladi

[11] https://lex.uz/docs/-3171590?ONDATE=04.07.2023%2000

ISSN 3030-3907

Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or uslublarini joriy etish yo‘li bilan, o‘sib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o‘qitish, shu tillarda erkin so‘zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiya yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko‘lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, ingliz adabiyoti durdona asarlarini asl ingliz tilida mutolaa qilish, ularning mazmun-mohiyatini tushunib yetish, asarlarda tasvirlangan jamiyat, davr haqida malumotga ega bo‘lish hamda ularni maxsus tadqiq qilish bugungi kunning dolzarb va muhim masalalariga aylandi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, mazkur ishimizning mavzusi ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Uchinchi renessans poydevorini yaratish yo‘lidan dadil odimlayotgan Yangi O‘zbekistonda ta’lim sifatini oshirish borasidagi islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanib ulgurdi. Shunga ko‘ra, ba’zilar ilm olishda samaradorlikni oshirish uchun o‘quvchilarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga qarab guruhlarga ajratishni taklif etishsa, ayrimlar bilim darajasidan qat’i nazar barchani bir sinfda o‘qitish lozimligini ta’kidlashadi. Xo‘sh , ushbu bahsmunozarali vaziyatda tomonlardan qay birining fikri o‘quv jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsata oladi?

Hech kimga sir emaski, so‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish , ilm-fanni rivojlantirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar doirasida xorijiy tajribadan oqilona foydalanish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, o‘quvchilarga ularning bilim darajasini inobatga olgan holda guruhlab ta’lim berish shular jumlasidandir. Ushbu tizim, avvalo, individual yondashuv asosida olib borilib, har bir ilm oluvchilarning har biri uchun qobiliyatiga mos mashg‘ulotlar tashkil etiladi. Masalan, jahonga mashhur Singapur ta’lim metodlari aynan shu qarash asosiga qurilgan bo‘lib, bu davlat yoshlari PISA reytinglarida yetakchi o‘rinlarni muntazam band etib kelishmoqda. Qolaversa, ba’zi bolalar uchun ma’lum bir fanlarni o‘zlashtirish murakkablik tug‘diradi. Guruhlarga ajratish esa ularga ortiqcha bosimsiz o‘qibo‘rganish imkoniyatini yaratadi. Xususan, poytaxtimizdagi “Rahimov School “ maktabi direktori Aziz Rahimov o‘z o‘quv dasturlarida yuqoridagi amaliyotni joriy etgach, ta’lim sifatida 30,5 foizga o‘sish kuzatilganligini intervyularida alohida qayd etgan .

Zamonaviy insonning har qanday masalada o‘z subyektiv fikriga ega ekanligini inobatga olsak, turli saviyadagi yoshlarning bir sinfda o‘qitilishi yaxshi samara berishi mumkinligini inkor eta olmaymiz, albatta. Birinchidan, “Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar” deganlaridek, aralash sinflar ijtimoiy ko‘nikmalar va jamoaviy muhitda ishlash qobiliyatini shakllantiradi. Jumladan, ta’lim giganti

ISSN 3030-3907

bo‘lmish Finlandiya o‘quv tizimi aynan shu amaliyotni qo‘llaydi va natijada o‘quvchilarning kelgusi hayotga moslashuv darajasi yuqori bo‘ladi. Ikkinchidan, o‘zlashtirish darajasiga ko‘ra guruhlarga bo‘lib o‘qitish ba’zilarga “zaif” tamg‘asini yopishtirib qo‘yishi va ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini sezilarli darajada pasaytirishi mumkin. Xalqaro Amerika Psixologlari Assotsiatsiyasi tomonidan o‘tkazilgan erkin tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tabaqalashtirilgan sinflardagi bolalar ruhiy muammolar va depressayiga qolganlarga nisbatan 25,5 foizga ko‘proq moyil bo‘lishadi. “Beshikdan qabrgacha ilm izla “ , - deydi dono xalqimiz. Darhaqiqat, bilim olishning chek-chegarasi yo‘q. Shunday ekan, barchaning barobar , bir sifxonada ta’lim olishi insoniylik va demokratiya jihatidan eng odilona qaror bo‘lib, ijtimoiy tenglikni tola ta’minlay oladi, deb o‘ylayman. Xususan, UNICEF va O‘zbekiston Maktabgacha va maktab ta’limi vazirliklari hamkorligi asosida yurtimiz o‘quv dargohlarida ham inklyuziv ta’limga oid yo‘nalishlar ishlab chiqildi. “Quyosh hammmaga birdek nur sochadi” deganlaridek, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi, sog‘ligi va boshqa jihatlari farqli ekanligga qaramay, teng o‘qitish tizimining joriy etilishi kelajak vorislarimizning samarali bilim olishlarini ta’minlab beradi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayoni har qachongidan ham ko‘proq diqqat markazimizni egallagan onlarda yosh avlodning bilim olishiga bee’tibor bo‘lish mutlaqo noto‘g‘ri. Bunda saviyasidan qat’i nazar o‘quvchilarni tabaqalashtirmasdan o‘qitish ularni har jihatdan yetuk insonga aylantirib, ijtimoiy moslashuv, erkin bilim almashish va jamoada ishlash kabi qobiliyatlarini shakllantiradi. Zero, Prezedentimiz Sh. M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta’lim va tarbiya bo‘ladi!”[12]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev, Sh. M., Erkin va farovon, demokratik O zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent,"Ozbekiston". 2016. - B. 14
2. Mirziyoyev Sh.M., Ozbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda organish va targib qilishning dolzarb masalalari // Xalq sozi — Toshkent, 2018-yil, 7-avgust.
3. Ozbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-s Ozbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining sonli qarori. Manba https://lex.uz/docs/-3338600
4. Ozbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy talimning davlat standartlarini tasdiqlash togrisida” 476-son qarori. Toshkent, 2020-yil https://lex.uz/uz/docs/-4944759

[12] https://daryo.uz/2023/05/30/yangi-ozbekistonning-asosiy-ustuni-bilim-talim-va-tarbiya-boladi/

ISSN 3030-3907

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy talim tizimini yanada yanada rivojlantirish choratadbirlari togrisida”gi 2909-sonli qarori. - Toshkent, 2017-yil 20-aprel. https://lex.uz/uz/docs/-3171590
6. Ozbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Magistratura togrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi VM-36-son qarori.—Toshkent, 2015-yil 2-mart. https://lex.uz/uz/docs/-2579469
7. https://xs.uz/uz/post/shavkat-mirziyoev-ozbekmumtoz-va-zamonavij-adabiyotini-khalqaro-miqyosda-organish-va-targibqilishning-dolzarb-masalalari-mavzusidagi-khalqaro-konferentsiyaishtirokchilariga-tabrik-jolladi
8. https://xs.uz/uz/post/yoshlar-talim-tarbiyasi-eng-ustuvor-vazifa

ISSN 3030-3907